

JISMONIY SHAXSGA BANK KARTASINI OCHISH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

“Ipoteka-bank” ATIB (keyingi o‘rinlarda Bank) ushbu bilan quyida ko‘rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishni taklif qiladi va ushbu oferta bilan tasdiqlangan shartlarning bajarilishi ushbu shartnomaning tuzilishi ekanligi va yuridik ahamiyatga ega ekanligini eslatadi:

I. ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR

1.1. Mazkur Ofertada quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

Bank - Aksiyadorlik tijorat “Ipoteka-bank”ning Bosh banki va uning filiallari.

Bank kartasi- o‘z egasiga bank hisobvarag‘i orqali bank kartasining amal qilish muddati doirasida, naqd pulsiz shaklda hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi to‘lov kartasi.

Xalqaro karta -Bank emitent tomonidan emissiya qilingan “VISA” hamda “MASTERCARD” bank kartasi egasiga undagi mablag‘lar doirasida bank hisobvarag‘i orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish va hisobvarag‘dan naqd pul olish imkonini beruvchi xalqaro to‘lov vositasi.

Foydalanuvchi – Bank filiali, internet tarmog‘idagi www.ipotekabank.uz korporativ veb sayti yoki “Ipoteka Mobile” ilovasi orqali bank kartasini ochish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha murojaat qilgan, ofertani akseptlovchi jismoniy shaxs.

Shartnoma – Ushbu Ofertani akseptlash orqali Bank va foydalanuvchi o‘rtasida masofadan turib yoki bankka kelib, bank kartasini ochish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuziladigan bitim.

Bank kartasi hisobvarag‘i - bank kartasi vositasida undagi pul mablag‘larini tasarruf etish mumkin bo‘lgan bank hisobvarag‘i.

PIN-kod- bank kartasi egasining shaxsiy identifikatsiya raqami bo‘lib, u karta hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini boshqarish huquqini hamda mablag‘larni boshqarishga bank kartasining egasi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi.

Bank kartasining blokirovkasi -xalqaro va mahalliy to‘lov tizimining qoidalariga, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida hamda bank tomonidan tasdiqlangan “Bank kartalaridan foydalanish qoidalari” ga muvofiq bank kartalarini amal qilishini to‘xtatish yoki uni bekor qilish bo‘yicha bank tomonidan ko‘rilgan chora.

To‘lov tizimi - tovar, ish (xizmat) uchun naqd pulsiz shaklda to‘lovlarni amalga oshirish hamda naqd pul yechish imkonini beruvchi maxalliy va xalqaro to‘lovlarga amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan tizim (Masalan: **Uzkard, HUMO, VISA, MASTERCARD va boshqa**).

Bank tarifi – “Ipoteka-bank” ATIB Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan, bank kartalari orqali bank operatsiyalari amalga oshirilganda, bank kartalarni muomalaga chiqarishda va ularni yangisiga almashtirib berishda undiriladigan komission to‘lov.

Minimal balans qoldig‘i (Sug‘urta depoziti) - Bank karta hisobvarag‘ida saqlanishi majburiy bo‘lgan pul mablag‘larining minimal qoldig‘i.

Bankdan tashqari to‘lov tizimi -To‘lov tizimi belgilari va uning qoidalarini belgilovchi va bunday turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar (**CLICK, RAUME, RAUNET va boshqa**)

Masofaviy bank xizmatlari (MBX) /Faqat xalqaro kartalar uchun/- Mijoz tomonidan masofadan turib telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda uzatiladigan (olingan) elektron almashinuvlar asosida ko‘rsatiladigan bank xizmatlari to‘plami. Jumladan:

SMS banking - plastik kartochka vositasida amalga oshirilgan to‘lovlarni nazorat qilish tizimi. Online tarzda amalga oshirilgan har bir to‘lov va kartaning joriy qoldig‘i bo‘yicha karta egasining telefoniga SMS xabar keladi.

Shubhali operatsiya - tayyorlash, sodir etish jarayonida bo‘lgan yoki sodir etib bo‘lingan, ichki nazoratni o‘tkazish vaqtida tijorat bankida uning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va (yoki) ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilganligiga shubha paydo bo‘lgan operatsiya;

Internet to‘lov - Bank karta egasiga Internet tarmog‘i orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish imkonini taqdim etish.

Ushlab turish (Hold) - Bank kartasi orqali muvofaqqiyatli amalga oshirilgan operatsiya va komissiya

summasini muzlatish.

Aksept – Ofertaning to‘liq va so‘zsiz qabul qilinishi. Ofertani Akseptlash shartnoma tuzilganigini vujudga keltiradi va huquqiy ahamiyatga ega.

PAN – (Primary Account Number) To‘lov plastik kartani yuzidagi 16 xonali raqamlar majmuasi.

CVV/CVC – (Card Verification Value/Code) on-line to‘lovlarni amalga oshiruvchi, plastik kartani orqa tomonidagi raqamlar majmuasining oxridagi 3 ta xonali raqamlardan iborat maxsus kod.

II. SHARTNOMANING PREDMETI

2.1. Oferta shartnomasini akseptlagan foydalanuvchiga bank hisobvarag‘ini (milliy valyutada va chet el valyutasida) ochish, bank kartalarini chiqarish, shuningdek ushbu shartnoma va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank kartasi hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar shartnoma predmeti bo‘lib hisoblanadi.

III. OFERTANING UMUMIY SHARTLARI

3.1. Ushbu ofertani akseptlovchi barcha shaxslar (quyida matnda “Foydalanuvchi” deb yuritiladi):

- a) bank kartasini ochish va ularga xizmat ko‘rsatishdan manfaatdor;
 - b) bank kartasining ochish shartlari va ma‘lumotlari bilan biz tomonimizdan taqdim etilgan “Shartlar” da tanishib chiqqan;
 - c) o‘z haqidagi ma‘lumotni ochmagan holda bank kartasini ochish va ularga xizmat ko‘rsatish mumkin emasligini tushunadi, va Bankka kerakli ma‘lumotni taqdim etishni istaydi;
 - d) taraflarning bank kartasini ochish va ularga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan harakati Bank filiali yoki “Ipoteka Mobile” ilovasi orqali amalga oshirilishini tushunadi;
 - e) bankdan yozma hujjatlar foydalanuvchiga bank filialidan yoki elektron shaklida shaxsiy kabinetda taqdim etilishi mumkinligini tushunadi va hujjatlarni olishning bunday shaklini o‘zi uchun mumkin deb hisoblaydi;
 - f) oferta bilan tanishish, ofertada taklif etilgan barcha shartlarni tushunganligini bildiradi.
- 3.2. Ushbu oferta bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalar yuzasidan 78 150-11-22 telefon raqami orqali, info@ipotekabank.uz elektron pochta manzili orqali bog‘lanish mumkin.

IV. SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI (AKSEPTNI YUBORISH TARTIBI)

4.1. Shartnoma bo‘yicha aksept uning matnida munosabatlar ishtirokchisining roziligi bo‘lgan elektron xabar yoki Foydalanuvchining ariza berishi orqali amalga oshiriladi.

4.2. Aksept, agar shartnomada boshqacha ko‘zda tutilgan bo‘lmasa, axborot tizimi tomonidan avtomatik aniqlanadigan bank tomonidan uni olinganligi haqida xabar yuborilgan yoki foydalanuvchi ariza bergan paytidan boshlab olingan deb hisoblanadi.

V. AKSEPTNI BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Aksept olinganidan keyin Bank Foydalanuvchiga aksept olinganligi haqidagi xabarni yuboradi.

5.2. Aksept Foydalanuvchining Aksept olinganligi haqidagi xabarni olganidan keyin bekor qilinishi (chaqirib olinish) mumkin emas.

5.3. Foydalanuvchiga yuborilgan “Aksept olindi” degan matnli xabar aksept olinganligi haqida xabar hisoblanadi.

VI. BANK KARTASINI OCHISH VA ULARGA XIZMAT KO‘RSATISH SHARTLARI

6.1. Foydalanuvchi tomonidan bank kartasini ochish yuzasidan Bank filiali, internet tarmog‘idagi www.ipotekabank.uz korporativ veb sayti yoki “Ipoteka Mobile” ilovasi orqali murojaat taqdim qilingan kundan so‘ng, keyingi ish kunidan kechiktirmay, foydalanuvchi nomiga bank karta hisobvarag‘i hamda 3 (uch) kunlik muddatda bank kartasi ochiladi.

6.2. Bank karta hisobraqami ochilib, bank kartasi chiqarilganidan keyin, Bank kartasi foydalanuvchi bankka kelgan holda, kuryerlik xizmati orqali, uning shaxsi identifikatsiya qilinganidan so‘ng shaxsan o‘ziga yoki ishonchnoma asosida uning ishonchli vakiliga topshiriladi.

6.3. Foydalanuvchilarga bank kartalari to‘lov tizimlari qoidalariga muvofiq ravishda taqdim etiladi.

6.4. Bank kartasi kuryerlik xizmati orqali yetkazib berish, qo‘shimcha haq evaziga amalga oshiriladi. Qo‘shimcha haqning miqdori Bank tariflarida belgilanadi va u Bankning maxsus saytlarida joylashtirib

boriladi.

6.5. Bank kartasi shartnomaning 6.1. -bandida belgilangan muddatda ochilganidan keyin, quyidagi muddatlarda yetkazib beriladi:

- HUMO va UzKard kartalari - 3 (uch) bank kuni ichida;
- VISA - Toshkent shahri - 3 (uch) bank kunida/ Toshkent viloyati va Respublikaning boshqa viloyatlariga – 10 (o‘n) bank kuni ichida.

MASTERCARD - Toshkent shahri - 3 (uch) bank kunida/ Toshkent viloyati va Respublikaning boshqa viloyatlariga – 10 (o‘n) bank kuni ichida.

6.6. Bank kartasining muddati, kartaning old tomonida ko‘rsatiladi. (Masalan: 03/24.- 31 mart 2024 yil 23:59 qadar.)

6.7. Bank kartalari mazkur shartnomada, to‘lov tizimlarining qoidalarida, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va bankning ichki me‘yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda Bank tomonidan yoki vakolatli organ tomonidan bloklanishi mumkin.

6.8. Bank kartasi foydalanuvchi tomonidan uning yozma murojaati/bankning aloqa markazlari orqali yoki masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda bloklanishi mumkin.

6.9. To‘lov tizimlarining qoidalariga binoan bank karta hisobvarag‘ida saqlanishi majburiy bo‘lgan pul mablag‘larining minimal qoldig‘i shakllantiriladi.

6.10. Foydalanuvchi bank kartasidan foydalanish qoidalari va yo‘riqnomalariga amal qiladi.

6.11. Foydalanuvchi nomiga qo‘shimcha bank kartasini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish qo‘shimcha karta bog‘lanayotgan hisobvara q shartnomasi bilan tartibga solinadi, agarda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa.

6.12. Xalqaro karta O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanilganda, qabul qiluvchi mamlakatning milliy valyutasiga belgilangan kurs bo‘yicha avtomatik ravishda konvertatsiya qilinadi.

6.13. Xalqaro karta orqali amalga oshirilgan operatsiyalar 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida foydalanuvchi tomonidan yozma ravishda e‘tiroz bildirilmagan har qanday operatsiyalar amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

6.14. Xalqaro karta orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bilan bog‘liq nizolar shu to‘lov tizimi qoidalari asosida ko‘rib chiqiladi.

6.15. Bank kartalari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turishda “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat” qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

6.16. Bank kartasi hisobvarag‘idan chiqim qilingan e‘tirozli operatsiyalar bo‘yicha foydalanuvchi Bankka yozma e‘tiroznoma arizasini taqdim qiladi.

6.17. Bank foydalanuvchining arizasi asosida to‘lov tizimlarining “Operatsiyalar bo‘yicha munozaralarni hal qilish” qoidalari bo‘yicha belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqadi.

6.18. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- Mijoz tomonidan shubhali operatsiya o‘tkazilganligi aniqlanganda, Mijoz tomonidan o‘tkazilgan operatsiyaning qonuniyligi to‘g‘risida yozma tushuntirish xati olinguniga qadar Bank Mijozga masofaviy xizmatlar ko‘rsatishni to‘xtatib turish;

- Masofaviy xizmatlardan foydalangan holda shubhali operatsiyalar o‘tkazilganligi gumon qilinganda Mijoz doimiy ro‘yxatdan o‘tgan manzil bo‘yicha mijozni o‘rganish, shu jumladan, bevosita shartnomada ko‘rsatilgan shaxs tomonidan operatsiyaning o‘tkazilayotganligini o‘rganish;

- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida mijozning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanilganligi haqida asosli shubha bo‘lganda, oferta shartnomasini bir tomonlama bekor qilish.

VII. TARAFLAR O‘RTASIDA HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH

7.1. Foydalanuvchi bankning barcha ko‘rsatilgan xizmat haqini bank tarifi bo‘yicha to‘lashga rozilik beradi (<https://ipotekabank.uz>).

7.2. Bank plastik kartočkasi ochilishi uchun undiriladigan to‘lovlar foydalanuvchi hoxishiga ko‘ra bank kassasiga naqd va naqdsiz ko‘rinishda oldindan amalga oshirilishi mumkin yoki to‘lovlar kartaning hisob raqamiga dastlabki kelib tushgan pul mablag‘idan bank tarifi bo‘yicha avtomatik tarzda undiriladi.

7.3. Bank tomonidan mazkur shartnomaga asosan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar akseptsiz ravishda hisobdan chiqariladi. Foydalanuvchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni boshqa hisobvaraqlardagi mablag'lardan naqd yoki naqd pulsiz shaklda ham amalga oshirishi mumkin.

7.4. Bank bank tariflarini o'zgartirish huquqiga ega bo'lib, bunda bank tariflarga kiritilgan o'zgartirishlar haqida, ular kuchga kirishidan 10 kun oldin, xizmat ko'rsatish punktlarida, shuningdek bankning internet tarmog'idagi www.ipotekabank.uz veb sayti sahifalarida joylashtirish orqali xabardor qiladi.

7.5 Bank karta egasining mahsus karta hisob raqam (keyingi o'rinlarda MKHR deb yuritiladi) dan quyidagi mablag'larni uning topshirig'isiz va roziligisiz yechib oladi:

- Karta(kartalar) va/yoki rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan operatsiya summalarini;- MKHRga xizmat ko'rsatilganlik uchun haqlarni (foizlar, jarima, xarajat va boshqa to'lovlar); - Agar Bank Tariflarida abonent to'lovi (har oylik yoki yillik) nazarda tutilgan bo'lsa, abonent to'lovini bo'nak (avans) sifatida;- Texnik overdraft summasi; - Bank yoki uchinchi shaxslar aybi bilan MKHRga noto'g'ri kirim qilingan summalar; - Mazkur shartnomada belgilangan miqdorda, tartibda va shartlarda mazkur shartnoma hamda Bank va karta egasi o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bo'yicha Bank oldidagi qarzdorlik summasi, shuningdek qarzdorlikni undirish bilan bog'liq bo'lgan Bank harajatlar va jarimalar summasi, hamda Karta egasining boshqa pul majburiyatlari; - O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq undiriladigan summalar, shu jumladan tegishli davlat organlarining qarori bilan undirish lozim bo'lgan summalar; - ijro hujjatlari bo'yicha undiriladigan summalar; - Amaldagi qonun hujjatlari va bank bilan Karta egasi o'rtasida tuzilgan shartnomalar talablariga muvofiq boshqa summalar.

Agar ushbu shartnomada ko'rsatilgan summalarni undirish uchun pul mablag'lari bo'lmasa yoki yetarli bo'lmasa, karta egasining Bankda ochilgan har qanday hisobvarag'idan undirib olinadi. Bu holda Bank karta egasining MKHRda saqlanayotgan pul mablag'larini (milliy va xorijiy valyutada) Bank oldida yuzaga kelgan qarzdorlik summasini qoplash uchun yetarli bo'lgan miqdorda mustaqil ravishda yechib oladi.

VIII. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

Foydalanuvchining javobgarligi:

8.1. bank karta hisobvarag'ida amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligiga va bankka taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'riligiga.

8.2. bank karta hisobvarag'idan noto'g'ri foydalanishi yoki noqonuniy harakatlari natijasida Bankka yetkazilgan zararlarni to'liq qoplanishiga;

8.3. Bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida bankka yozma ariza va/yoki telefon orqali xabar bermasligi oqibatida, bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarga.

8.4. Foydalanuvchi o'z nomiga rasmiylashtirilgan plastik kartaning pin-kodini maxfiyligi va begona shaxslarga oshkor etilmasligi bo'yicha javobgardir.

Bankning javobgarligi:

8.5. Bank kartasi hisobraqami bo'yicha noto'g'ri yoki xato bajarilgan to'lovlar uchun, bunda, noto'g'ri yoki xato bajarilgan to'lovlarni bekor qilinishi bilan Bankning javobgarligi cheklanadi.

8.6. Elektron to'lovlarni amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlari bank tomonidan buzilgan taqdirda, u foydalanuvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lanadi.

8.7. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod etiladi:

- xalqaro va mahalliy to'lov tizimida, shuningdek banklararo elektron to'lov tizimlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;

- uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartalariga xizmat ko'rsatishi rad etilganda;

- bank kartasi vositasida xarid qilingan tovar, ish (xizmat) sifatiga;

- foydalanuvchi manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan darajadagi uchinchi shaxslar tomonidan bank kartasi orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarga o'rnatilgan limitlar, cheklovlar va boshqa to'lovlar;

- foydalanuvchi tomonidan shartnoma shartlari buzilganda yoki foydalanuvchi tomonidan noqonuniy harakatlar sodir qilingan holda;

- bank kartasi egasining ruxsatisiz yoki bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida bankka yozma ariza taqdim qilinishidan oldin bank kartasi vositasida bajarilgan operatsiyalar;

- foydalanuvchi karta malumotlarini uchinchi shaxslarga oshkor etish natijasida yoki uni ishtirokisiz kartadan bank operatsiyalari amalga oshirilsa, ushbu amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha;

- bank karta foydalanuvchidan ko'rsatilgan hizmatlari uchun ekvayer tomonidan undirilayotgan komission to'lov miqdori va turi, shuningdek, EKVAYER tomonidan yuborilgan tranzaksiyalarning summasi bo'yicha;

- Karta saqlovchi, kartadan foydalanish qoidalarini buzgan bo'lsa va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga zid harakatlarni amalga oshirganda;

- Karta saqlovchi, kartani yoki PAN, CVV/CVC va PIN kodni o'zining ma'suliyatsizligi natijasida yo'qolishiga yo'l qo'yganda;

- Tranzaksiyalar, karta saqlovchi tomonidan, bankka, kartani yoki PIN kodni yo'qolganligi to'g'risidagi yozma ravishda taqdim etilgan arizadan avval amalga oshirilgan bo'lsa.

8.8. Yengib bo'lmaydigan yong'in, suv toshqini, zilzila, elektr tarmog'ining uzilishi/to'xtatilishi va taraflar imkoniyatidan tashqari to'siqlar (fors-major holatlari) vujudga kelganda hamda shu kabi mavjud bo'lgan boshqa holatlarda taraflar majburiyatlardan qisman yoki to'liq ozod etiladi.

8.9. Bunday favqulodda hodisalarga quyidagilar kiradi: suv toshqini, yong'inlar, zilzila, portlash, to'fonlar, tuproqning cho'kishi, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy ofatlar, davlat organlarining qarorlari, shuningdek urushlar yoki urush harakatlari.

IX. MAXFIYLIK

9.1. Foydalanuvchi ushbu oferta bo'yicha axborotni kredit byurosiga va garov reyestriga, skoring kompaniyasiga, mobil aloqa operatoriga, va zarur bo'lganda, sug'urta kompaniyasiga berishga, shuningdek xizmatlarni amalga oshirishga va sifatini yaxshilash maqsadida shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish, foydalanish va uchinchi shaxsga taqdim etishga rozilik bildiradi.

9.2. Bank barcha kerakli ma'lumotni ushbu oferta doirasida, o'z majburiyatlarni bajarish uchun uchinchi shaxslarga berish huquqiga ega bo'ladi.

9.3. Bank talab qilish huquqidan uchinchi shaxs foydasiga voz kechishi holatida, ushbu oferta bo'yicha barcha ma'lumotni taqdim etishi mumkin.

X. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALARNI KIRITISH

10.1. Bank foydalanuvchini bu haqda xabardor qilib, shartnomaning shartlariga o'zgartirish kiritish huquqiga ega bo'ladi.

10.2. Bank foydalanuvchiga ijtimoiy tarmoq orqali shartnomaga o'zgartirish kiritilishi haqida xabardor etadi.

10.3. Foydalanuvchi shartnomaga o'zgartirish kiritishga rozi bo'lmagan holda, Foydalanuvchi o'zining rozi bo'lmashligi haqida xabarni yuborishi lozim.

10.4. Shartnomaga o'zgartirish kiritishga rozi emasligi haqidagi xabarni yuborgandan keyin, Taraflar qisqa muddatda o'zaro hisob-kitob qilishi shart.

XI. BITIMDAN VOZ KECHISH SHARTLARI

11.1. Bank bir tomonlama tartibda biror-bir majburiyatsiz shartnomani bajarishdan voz kechish huquqiga ega.

11.2. Bank foydalanuvchiga xabar yuborish orqali xizmat ko'rsatishdan voz kechish haqida bildiradi.

11.3. Foydalanuvchi 2 kun davomida bankning shartnoma shartlarini bajarishdan bir tomonlama voz kechish haqidagi xabariga javob bermagan holda, foydalanuvchi shartnomani bajarishdan bir tomonlama voz kechish haqidagi xabarini qabul qilgan deb hisoblanadi.

11.4. Shartnomani bajarishdan bir tomonlama voz kechish haqidagi xabarni yuborgandan keyin uch kun o'tganidan so'ng, shartnoma bankning biror-bir majburiyatlarisiz bekor qilingan deb hisoblanadi.

11.5. Foydalanuvchi shartnoma bo'yicha barcha mablag'lar, shu jumladan penya, sarflar, xarajatlar, hisoblangan va mikroqarz muddatining oxirigacha hisoblanishi lozim bo'lgan foizlar va mikroqarz miqdori to'langanidan keyin, shartnomani bajarishdan bir tomonlama tartibda voz kechishi mumkin.

11.6. Foydalanuvchi shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishni istagan holda, u Bankka bu haqda xabarni yuboradi.

11.7. Shartnoma Bank tomonidan bir tomonlama tartibda istalgan paytda, biror-bir majburiyatsiz bekor qilinishi mumkin.

11.8. Shartnoma Foydalanuvchi tomonidan faqat shartnoma bo'yicha barcha mablag'lar, shu jumladan penya, sarflar, xarajatlar, hisoblangan va mikroqarz muddatining oxirigacha hisoblanishi lozim bo'lgan foizlar, va mikroqarz miqdori to'langanidan keyin, bekor qilinishi mumkin.

11.9. Shartnomani bekor qilmoqchi bo'lgan Taraf boshqa Tarafga bekor qilish sanasidan avval 5 kun ichida bu haqdagi xabarni yuboradi.

XII. SHARTNOMA TUZILGAN TIL HAQIDA MA'LUMOT

12.1. Shartnoma ikki tilda, davlat va rus tillarida tuzilgan.

12.2. Shartnomadagi matnlarning o'zaro ziddiyati bo'lganda, davlat tili ustuvor deb hisoblanadi.

XIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI BEKOR QILISH

13.1. Mazkur oferta shartnomasi foydalanuvchi tomonidan akseptlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi hamda bank kartasini amal qilish muddatiga qadar amalda bo'ladi.

13.2. Shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

13.3. Ushbu shartnoma foydalanuvchining talabiga binoan istalgan vaqtda bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha to'lovlar amalga oshirganidan keyin bekor qilinishi mumkin.

13.4. Foydalanuvchining tashabbusi bilan shartnoma bekor qilinganida, shartnoma doirasida muomalaga chiqarilgan bank kartasi Bankka qaytarilishi lozim.

13.5. Shartnomaning bekor qilinishi, bank karta hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi.

13.6. Shartnoma muddatining tugashi Foydalanuvchini o'z majburiyatlarini bajarishdan va shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

13.7. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan, u bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

XIV. NIZOLARNI HAL ETISH

14.1. Shartnoma bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar imkoni boricha, Taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

14.2. Agar Taraflar kelisha olmasa, nizo Bank yoki uning tarkibiy tuzilmasi joylashgan hududning

tumanlararo fuqarolik sudida hal etiladi.

XV. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

15.1. Hujjatning elektron versiyasi bank bazasida saqlanadi.

15.2. Ushbu oferta doirasida Taraflarga barcha xabarnomalar, taraflar xabar berish yoki xabar yuborish uchun manzil yoki telefon raqami deb ko'rsatgan manzilga yoki telefon raqamiga (quyida matnda «Xabar berish uchun manzil») yuboriladi.

15.3. Taraflar Xabar berish uchun manzilni xabarlar borligi yuzasidan muntazam tekshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

15.4. Tekshirmasligi holatida, ushbu xabar ularga ma'lum bo'lmagani haqida bildirish huquqidan mahrum etishini tasdiqlaydi.

15.5. O'zining Xabar berish uchun manzilini (telefon raqamini) uchinchi shaxslarga bergan holda, Foydalanuvchi o'zining yangi Xabar berish uchun manzilini bildirishi shart. Lekin bunda eski Xabar berish uchun manziliga xabarlar yuboriladi.

XVI. BANK REKVIZITLARI

16.1. "Ipoteka-bank" ATIB (quyida matnda "Bank") aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yuridik shaxs quyidagi rekvizitlarga ega:

a) joylashgan manzili: Toshkent shaxri, Shaxrisabz ko'chasi, 30-uy;

b) soliq to'lovchining shaxsiy raqami: 202858483;

v) O'zbekistan Respublikasi Markaziy banki tomonidan **.25-dekabr 2021 yilda berilgan** 74-sonli litsenziyaga ega;

g) domen manzili: www.ipotekabank.uz.

"Ipoteka-bank" ATIB

Manzil: Toshkent shaxri, Shaxrisabz ko'chasi, 30-uy;

H/R _____

MFO: 00937, OKED: 64190

STIR: 202858483

Telefon: (+99878)150-11-22

www.ipotekabank.uz

elektron manzil: info@ipotekabank.uz